

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## ARAB TILINING DUNYO MIQYOSIDA O'RGANILISHI

**Dilshoda Mubarakova***O'qituvchi, dotsent,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston**Email: [dilim\\_yahoo.com](mailto:dilim_yahoo.com)***Maxliyo Mamatqulova***"Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasida magistranti,*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar** maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo'lishi lozim.

**Annotatsiya:** Quyida keltirilgan maqolada arab tilining dunyo miqyosida qay darajada qabul qilinishi bilan birgalikda mazkur tilda yozilgan va asrlardan buyon omma e'tiboridan tushmay kelayotgan asarlar haqida gap ketadi. Asarlar ro'yxati asosan hududga qarab taqsimlab chiqilgan va bundan siz keltirib o'tilgan hududlarda arab tilining qanday darajada tarqalganligini bilib olishingiz mumkin. Maqolada yana hozirgi kunda va o'tgan asrlarda tarjima qilingan asarlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yana maqola so'ngida hozirgi kunda eng ko'p tarjima qilinayotgan 10 dan ortiq arab tilidagi asarlar ro'yxati va ularda yozilgan voqealar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Hozirgi zamonaviy arab tili dunyo miqyosida 22 ta davlatda asosiy "davlat" tili darajasida hisoblanadi. U ilm-fan, adabiyot, siyosiy, iqtisodiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun asosiy til vazifasiga ega. Har yili 18- dekabr xalqaro arab tili kuni sifatida dunyo bo'ylab keng nishonlanadi. Zamonaviy arab tili xar hil arab davlatlarida yashovchi aholi uchun asosiy muloqot va o'zaro yaqinlashish vositasidir. Mustaqil O'zbekistonda ham hozirgi kunda arab tiliga bo'lgan e'tibor yuqori bo'lib bunga arab mamlakatlari bilan olib borilayotgan turli xil siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mavzulardagi ishlar bu tilning yurtimizda ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalarning 30 foizi arab tilida bo'lgan, ko'pchiligi o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Ammo tarjima qilinmagan qo'lyozmalar ham anchaginani tashkil etadi. Shu boisdan yurtimizda arab tilini biluvchi mutaxassislariga ehtiyoj katta. Jahondagi 15 yirik tilning BMT majlislarida olib

boriladigan 6 tili bu arab tili hisoblanadi. Arab tiliga bo'lgan qiziqishlarning yuqoriligi ayrim hollarda bu tilda uchrochi yuksak falsafiy va sharqona qarashlarga boyligi bilan ham izohlanadi. Olimlar bu tilda berilgan qadimiy xalqlar hayotiga xos bo'lgan ma'naviy va madaniy ma'lumotlarni yillar davomida turli xil usullar orqali kashf etib kelishmoqda.

---

## LEARNING THE ARABIC LANGUAGE WORLDWIDE

**Dilshoda Mubarakova**

*Teacher, associate professor,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

**Makhliyo Mamatkulova**

*Master degree,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** non-Arab, Arab countries, globalization, geopolitical situation, translated works, Turkic peoples, Arabic literature, written sources, Christian scholars.

**Abstract:** The following article discusses the extent to which the Arabic language is accepted on a global scale, as well as the works written in this language that have been hidden from the public's attention for centuries. The list of works is divided mainly by region, and from this you can find out how widespread the Arabic language is in the mentioned regions. The article also provides information about works translated today and in past centuries. At the end of the article, there is a list of more than 10 most translated Arabic works and brief information about the events written in them. Today, modern Arabic is considered the main "state" language in 22 countries worldwide. It is the main language for science, literature, political, economic documents, mass media. Every year, December 18 is widely celebrated around the world as the International Arabic Language Day. Modern Arabic is the main means of communication and rapprochement for people living in different Arab countries. Even in independent Uzbekistan, the attention to the Arabic language is high, and the work on various political, economic, and social issues with the Arab countries is the reason for the spread of this language in our country. 30% of the manuscripts stored in the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan were in Arabic, most of them were translated into Uzbek and Russian languages. But there are also many untranslated manuscripts. Therefore, there is a great need for specialists who know the Arabic language in our country. Among the 15 major languages in the world, 6 of the languages used in UN meetings are Arabic. The high level of interest in the Arabic language is sometimes explained by the wealth of high philosophical and oriental views that can be found in this language. Scientists have been discovering spiritual and cultural information

specific to the life of ancient peoples given in this language for years through various methods.

---

## ИЗУЧЕНИЕ АРАБСКОГО ЯЗЫКА ПО ВСЕМУ МИРУ

**Дильшода Мубаракова**

*Преподаватель, доцент,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**Махлиё Маматкулова**

*Степень магистра,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

#### **Ключевые слова:**

неарабские, арабские страны, глобализация, геополитическая ситуация, переводные произведения, тюркские народы, арабская литература, письменные источники, христианские ученые

#### **Аннотация:**

В следующей статье обсуждается, в какой степени арабский язык принят в мировом масштабе, а также произведения, написанные на этом языке, которые на протяжении столетий были скрыты от внимания общественности. Список произведений разбит в основном по регионам, и отсюда можно узнать, насколько распространен арабский язык в упомянутых регионах. В статье также представлена информация о произведениях, переведенных сегодня и в прошлые века. В конце статьи приводится список из более чем 10 наиболее переводимых арабских произведений и краткая информация о событиях, описанных в них. Сегодня современный арабский язык считается основным «государственным» языком в 22 странах мира. Это основной язык науки, литературы, политических, экономических документов, средств массовой информации. Ежегодно 18 декабря широко отмечается во всем мире как Международный день арабского языка. Современный арабский язык является основным средством общения и сближения людей, проживающих в разных арабских странах. Даже в независимом Узбекистане внимание к арабскому языку высоко, а работа по различным политическим, экономическим и социальным вопросам с арабскими странами является причиной распространения этого языка в нашей стране. 30 % рукописей, хранящихся в Институте востоковедения Академии наук Узбекистана, были на арабском языке, большая их часть переведена на узбекский и русский языки. Но есть также много непереуведенных рукописей. Поэтому в нашей стране существует большая потребность в специалистах, владеющих арабским языком. Среди 15 основных языков мира 6 языков, используемых на заседаниях ООН, являются арабскими. Высокий уровень интереса к арабскому языку иногда объясняется богатством

высоких философских и восточных воззрений, которые можно найти в этом языке. На протяжении многих лет учеными различными методами открывались духовно-культурные сведения, характерные для жизни древних народов, данные на этом языке.

## KIRISH

Bizga ma'lumki, arab tili dunyo bo'yicha eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biri hisoblanadi. Mazkur til xalqaro til sifatida 1973-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan oltinchi xalqaro til sifatida qabul qilingan. Bunga asosiy sabablardan biri-ushbu tilning Islom dini bilan bog'liqligi. Internet ma'lumotlariga ko'ra hozirda 450 million inson orasida bu til asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shulardan deyarli teng yarmi ya'ni 220 millionining asl kelib chiqishi arab bo'lib, mazkur til ular uchun ona tili vazifasini o'taydi<sup>1</sup>. Qolgan yarmi arab-bo'lmagan aholi bo'lib turli sabablarga ko'ra arab tilini o'zlashtirganlar. Bu insonlarda nima sababdan arab tilini o'zlashtirishga bo'lgan xohishning paydo bo'lganligi diniy dunyo qarash bilan birgalikda, arab adabiyotidagi va yozma arab manbatidagi turli sohalarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarning ko'pligi bilan izohlanadi. Ayniqsa tarix, arab va boshqa qo'shni millatlarning qadimiy madaniyati diniy, sohasiga oid ma'lumotlar anchaginani tashkil etadi.

Arab tili boshqa bizga tanish tillardan farqli o'laroq, o'zining alohida xususiyatlariga ega. Masalan, uning chapdan o'nga emas balki, o'ngdan chapga qarab yozilishi, alifbosida bosh harflarning uchramasligi. Asrlardan beri yashab kelayotgan tillar turli xil o'zgarishlar, rivojlanishlar, zamonaviy dunyoga moslashishlarni, ayrim so'zlarning yo'qolishi yoki aksincha xorijiy so'zlarning o'zlashishi kabi hodisalarni boshdan kechiradi. Arab tili esa ham qadimiy tillardan biri sifatida o'zining asrlardan beri shakillanib kelgan o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotgani yo'q. Mazkur til Som-hom tillar oilasiga mansub bo'lib, ushbu oiladan faqatgina ibroniy va arab tillarigina keng is'temolda. Qadimiy arab tilining na'munalari Qur'ondan oldin tosh va qoyalarga o'yilgan holda topilgan. Arab tili miloddan avvalgi asrlardan beri turli xil yozuv uslublarida yozilgan. Tilning yozuv tizimi bir qancha evalutsiyalardan o'tgan. Arab tilining hozirgi yozuv uslubi esa milodiy oltinchi asrda hozirgi Suriya va Shimoliy Arabiston yerlarida vujudga kelgan<sup>2</sup>.

Arab tilining shakillanishi va bu darajada tarqalishida Islom va musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onning o'rni katta. Tarixdan ma'lumki, Arablar o'z iste'lolari natijasida dunyoning ancha qismini boshib olganlar va bu hududda yashovchi aholini islom diniga

<sup>1</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>2</sup> An Opinion Analysis Tool for Colloquial and Standard Arabic

davat qilganlar. Bundan tashqari bosib olingan hududlarda arab tili va alifbosini joriy qilib, bu tilning boshqa arab-bo'lmagan xalqlar orasida tarqalishiga sababchi bo'lgan. Ispaniyadan to Erongacha bo'lgan hududlarda savdogarlar va sayyohlar ham bu tildan foydalanishgan<sup>3</sup>. Ular Misr, Delta bo'yi, Suriya, Falastin bo'ylab sayohatlarini amalga oshirishgan va bu hududlarda arab tilining tarqalishiga hissa qo'shishgan. 691-yilda Xalifa Abul Malik tomonidan ushbu til hukumat til darajasiga ko'tarilib, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda o'z o'rniga ega bo'lgan<sup>4</sup>. Bu davrgacha esa yuqoridagi sohalarda grek va fors tillaridan kengroq foydalanilgan.

Hozirgi globallashuv jarayonida esa arab tilining so'zlashish miqyosi anchagina ortib bormoqda. Bunga sabab faqatgina uning Islom tili bo'lgani emas, balki, Arab mamlakatlarining jahon iqtisodiy, siyosiy sohalarida ham bir qancha yuqori darajalarni zabt etganligi bilan izohlanadi. Bu fikrning isboti sifatida oxirgi yillarda arab mamlakatlariga xorijiy migrantlar tashrifining ortganligini keltirib o'tsak bo'ladi. Xalqaro Ishchilar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilning o'zidagina Qatarda migrantlar soni o'tgan yillarga nisbatan 10.5% ga oshib, bu ko'rsatkich 330 ming kishini tashkil etgan<sup>5</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu migrant-ishchilarning ko'pchilik qismi arab tilini o'zlashtirishga majbur bo'lyapti. Bu ham arab tilining dunyo miqyosida keng foydalanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biroq keltirib o'tilgan kattagina ko'rsatkichlarga qaramasdan, Malayziyadagi Islom Universiteti tomonidan o'quvchilar orasida olib borilgan so'rov narijalariga ko'ra arab tili eng o'zlashtirish qiyin bo'lgan tillar orasida yuqori o'rinnlarni egallaydi<sup>6</sup>. Bunga esa asosiy sabablardan mazkur tilni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan manbalarning yetishmasligi, talaffuz me'yorlarining bir muncha o'ziga xosligi, jinslarda bo'linishi va eng asosiysi arab tilidagi bitta so'z turli matnlarda turli ma'no ko'chishlari orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Ammo shunga qaramasdan, qadimdan mazkur tildan olimlar anchagina samarali foydalanganlar, hatto bu tilda boshqa hududlarning tarixiga oid ma'lumotlarning mavjudligi bu tilda ijob qilganlarning tilni yuksak darajada o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Masalan Abu al Fajar al Isfahoniyning "Kitob al-Aghani" asari arab madaniyati tasirida yoziladigan she'rlar, qo'shiqlar va musiqalar uchun qo'llanma sifatida yozilgan<sup>7</sup>. Ushbu kitob 20 ta bobdan iborat bo'lib X asrda yozilgan. Asarda qadimgi arab xalqlarining she'rlari va qo'shiqlari ijodkor tomonida 50 yil mobaynida yig'ilgan. Mazkur kitob 10 ming varoqdan ortiq bo'lib, unga 16 mingdan ortiq she'r namunalari kiritilgan.

<sup>3</sup> An Opinion Analysis Tool for Colloquial and Standard Arabic

<sup>4</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>5</sup> Arabic Language: Historic and Sociolinguistic Characteristics

<https://www.researchgate.net/publication/307167761> Ibrahim Al-Huri (Sheba Region University - Yemen)

<sup>6</sup> Effective Methods in Learning Arabic Language as a Foreign

<sup>7</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

Kitob uchta qismga bo'linadi: uning birinchi qismi "100 ta eng yaxshi qo'shiqlar" deb nomlanib ularning deyarli barchasi Xalifa Xorun ar Rashid tomonidan tanlangan. Ikkinchi qismi esa qirol oilasi uchun yozilgan she'r va qo'shiqlardan tashkil topgan, asarning uchinchi qismi haqida gap ketadigan bo'lsa, ushbu bobga Islom dini kelishidan oldin mavjud bo'lgan arab xalqlarining og'zaki ijod namunalari to'plangan. Asar tarixiy va lirik ahamiyatga ega bo'lib, Arab adabiyoti va tarixiga qiziqqanlar uchun foydalidir.

X-asr yakunida Bag'dodda yaratilgan Al Nadimning "Mundarija" asari o'z davrining kitobxonlari tomonidan yuksak baholangan<sup>8</sup>. Ushbu asarda turli xil sohalarga oid ma'lumotlar jamlangan bo'lib, X-asrdagi Xristian, Yahudiy, Islom dinlari haqida qimmatli ma'lumotlar bilan birgalikda arab grammatikasi, filologiyasi, tarixi, she'riyati, arab qonun-qoidalari, bibliografiyasi, hadislar, alkimyo va shunga o'xshash sohalarga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari asarda Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy hududlari haqida tarixiy faktlarni o'zida jamlagan. Bu asar arab klassikasining nodir namunasi hisoblanadi.

Arab tilining boshqa hududlarda tarqalishi bu tilda ijod qiluvchilar sonini bir qadar orttirdi. Xususan O'rta Osiyoda ham arab tilida ijod qiluvchilar ko'payib, hatto mazkur til egalaridan ham bu tilni mukammalroq biladiganlar topilgan. Masalan Ibn Sino o'zining arab tilida yozgan asarlari aniq fanlar, falsafa, tibbiyot sohasiga oid ma'lumotlarga boydir. Ammo shu davrda arab olimlar tomonidan ijodkorning asarlaridagi grammatika va filologiya jihatidan qilingan xatolari tanqid qilinadi. Bu tanqidlardan so'ng Ibn Sino uch yilga yaqin vaqtini arab tilini o'rganishga sarflaydi va oxirida mazkur tilda turli qasidalar, risolalar yozadi. Keyinchalik bu yozilgan asarlar mazkur arab jodkori Ibn al Amir al-Sahib va al-Sabi asarlari bilan tenglashtiriladi. Hayratlanarlisi shundaki, Ibn Sino ushbu asarlarida arab olimlaridan farqli ravishda oson grammatika tuzilishi va so'zlarning tushunarli qo'llanilishi olqishlarga sazovor bo'lgan. Ibn Sinoning bu asarlari faqatgina turkiy xalqlar orasidagina emas balki, arab diyorlarida ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Ibn Sinodan tashqari turkiy millatdan bo'lgan Al Tabriy ham o'zining Qur'onning tafsiriga bag'ishlangan asarlari bilan arablar orasida mashhur. Al Tabriyning arab tili o'z ona tili emasligiga qaramasdan uning asarlari ham yuksak darajada baholangan<sup>9</sup>.

Turkiylardan chiqqan Al-Marg'iloniy, Az-Zamaxshariy, Al-Buxoriylar ham arab tilining rivojlanishi uchun o'z hissalarini qo'shgan. Shuni aytib o'tish kerakki, Al-Marg'iloniy islom qonun-qoidalari, Az-Zamaxshariy arab tili grammatikasi haqida, Al-Buxoriy esa hadislarini yig'ish ya'ni hadisshunos olim sifatida bir qator ishlarni amalga oshirishgan. Bulardan yana biri Al-

<sup>8</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>9</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).



Beruniy bo‘lib, u boshqa dunyo, din vakillarining madaniyati va dinini o‘rganishga o‘z asarlari bilan yozdam bergan. Beruniy qadimiy Sanskrit tilini o‘zlashtirish va bir qancha asarlarni Pajantalisning “Yogasutras” va Bahatvat Gitaning asarlarini o‘qish orqali bir qancha asarlar tarjima qilgan<sup>10</sup>. Ammo Beruniyning yig‘gan ma‘lumotlari IXX asrga qadar, yevropaliklarning kashfiyotigacha, deyarli unitilgan. Yuqoridagi ma‘lumotlardan shuni bilsa bo‘ladiki, ajamlar ham arab diyolarida anchagina o‘z obro‘lariga ega.

Yuqorida qayd etilganidek, arab tilini o‘zganishning asosiy sabablaridan biri sifatida ushbu tildagi turli millat madaniyatlariga, diniga tarixiga oid ma‘lumotlarning ko‘pligi hisoblanadi. Mazkur fikrimizning isboti sifatida qadimdan tarjima qilinib kelingan asarlarni keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bulardan eng ko‘p tarjima qilingan asar Yahudiylarning muqaddas kitobi bo‘lmish Bibliyaning tarjima qilinishi ham anchagina arab tiliga bo‘lgan e‘tiborning ortishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari X asrda Bag‘dodda yashab o‘tgan ijodkor Said Gaonning Bibliyaga sharh sifatida yozilgan “Kitob al-amanat val e‘tiqod” asari ham arab tilidan eng ko‘p tarjima qilingan asarlardan biri hisoblanadi<sup>11</sup>. Bu asar 1186-yilda ibroniychaga Juddah ibn Tibbon tomonidan tarjima qilingan. Bu qatorga yana andalusiyalik faylasuf Moses Miamoidesning “Dalolat al-hairin” asari ham o‘z o‘rniga ega. Bu asar XII asrda yozilgan. XII asrda yashab o‘tgan Zudak Ha-Levining Yahudiylik dinining sharhiga bag‘ishlangan asari ham eng ko‘p tarjima qilinadigan asra sifatida ko‘riladi.

Arab tilining juda so‘zga boy bo‘lishiga sabablardan biri arab tiliga boshqa tillardan tarjimalarning ko‘payganligidir. 800-yillarning boshlarida juda ko‘p miqdorda tarjima ishlariga qo‘l urilgan va bu tarjimalarning asosiy qismi falsafiy adabiyotlar bo‘lib ular asosan Grek tilidan arab tiliga tarjima qilingan. Bu tarjimalar arab tilidan yuksak ta‘lim olgan xristianlar tomonidan amalga oshirilgan. Ulardan biri xristian, fizik olimi Husayn ibn Ishoq hisoblanib, u grek tili bo‘yicha mutaxassislik darajasiga yetadi va asosan aniq fanlarga va meditsina sohasiga oid bo‘lgan kitoblarni to‘g‘ridan to‘g‘ri arab tiliga tarjima qilgan<sup>12</sup>. Manashunday say harakatlar natijasi o‘laroq arab dunyosiga yunon olimlari Galen Gippokrat, Aristotelning asarlari kirib kela boshlagan. Hamda yana bir mashhur tarjimonlardan biri Tabit ibn Qurra o‘zining matematika sohasiga qo‘shgan hissasi alohida ahamiyatga ega. Uning hozirgi kunda ham mashhur bo‘lgan “IX asrda Bog‘doddagi aniq fanlar va falsafa” (Science and Philosophy in ninth-century Baghdad)

<sup>10</sup> Facets from the Translation Movement in Classic Arab Culture Hala Khalidi a, Basma Ahmad Sedki Dof Jordan, Amman.

<sup>11</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>12</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

asarida matematika, fizika, astranomiya, tibbiyot sohalariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>13</sup>. Bu asar ham yunon olimlari tomonida yozilgan asarlarini tarjiam qilish orqali yozilgan.

Keyinchalik andalusiyalik olimlar tomonidan arab tilidagi Aristotel, Ibn Rashidning asarlari lotin tiliga tarjima qilingan. Shuni aytib o'tish kerakki, bu davrgacha Yevropada grek faylasuflarining asarlarini o'qish imkonsiz edi. Shuning uchun Xristian, teolog Tomas Aquins Aristotel va uning asaralariga sharhlar yozgan, olim Ibn Rashidning asarlarini aynan arab manbalarida o'rgangan. Bundan tashqari o'sha davrda Hind tilidan (qadimgi Sanskrit) tarjima qilingan bir qancha astronomik va tibbiyot sohasiga oid ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Masalan "Zij-hindsind" asaridir. Yuqorida aytib o'tilgan sohalardan tashqari Hind adabiyotidan ham tarjimalarni amalga oshirganlar<sup>14</sup>. Misol uchun Hindiston xalqining qadimgi hikoyalar to'plami bo'lmish "Panchatantra" asari arab tiliga fors tilidan Abu Said ibn al Muqaffan tomonidan "Kalila va Dimna" nomi ostida tarjima qilingan<sup>15</sup>.

Vaqtlar o'tishi bilan arab tilidagi manbalar dunyo bo'yicha tarjima qilina boshladi, buning isboti sifatida 1484-yilda arab hikoyalarining "Aeobs" nomi ostida Angliyada William Caxton nashryoti tomonidan bosib chiqarilganligini keltirib o'tsak bo'ladi<sup>16</sup>.

Bundan tashqari arab manbalarida geografiya sohasiga oid ma'lumotlar boshqa yevropa tillarida keltirilgan ma'lumotlardan keng ko'lamli yozilganligi bilan ustunlik qiladi. Yunon olimi Ptolomey o'zining yozib qoldirgan asarlari bilan qiymatga ega bo'lsa, arab sayyohlari ham xuddi shu kabi o'zlari ko'rgan joylardan qimmatli ma'lumotlar, faktlar to'plashgan va yozib qoldirishgan. Bunga misol tariqasida XX-asrdagina eron manbalariga sungan holda kashf etilgan Janubiy Rossiyaning Volga daryosi bo'ylarida yashovchi vikinglar haqidagi farazlar bundan 10 asr oldin Xalifa Al-Muqtadirning Bolgar yerlariga yuborga elchisi Ibn Faldan tomonidan yozib qoldirilgan<sup>17</sup>.

Ibn Batutaning "Rihla" asarida ham muhim geografik ma'lumotlar yig'ilgan. Uning Marokashdan to Xitoyga qadar qilgan sayohat ta'surotlari aks etgan ushbu asari XIV asrda yozilgan. Mazkur asarda Madina, Makka, Antaliya ottomoslarining rivojlanishi, Dehli, Maldiviya orollari haqida ancha to'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mashhur yevropalik sayyoh Marko Polodan farqli ravishda u islom dininig sharofati bilan o'zi tashrif buyurgan yer aholisidan yordam

---

<sup>13</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>14</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>15</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>16</sup> Arabic Language: Historic and Sociolinguistic Characteristics <https://www.researchgate.net/publication/307167761> Ibrahim Al-Huri (Sheba Region University - Yemen)

<sup>17</sup> Arabic Language: Historic and Sociolinguistic Characteristics <https://www.researchgate.net/publication/307167761> Ibrahim Al-Huri (Sheba Region University - Yemen)



va iltifot koʻrgan. U oʻzining sayohatini moʻgʻul bosqinlaridan keyin amalga oshirganligi sababli Mangoliyagacha boʻlgan hududlarda erkin amalga oshirish orqali musulmon boʻlgan va musulmon boʻlmagan ikki jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganishga imkon topgan. Bu sayyohlar tomonidan yigʻilgan maʼlumotlar hozirda ham geografiya sohasining rivojlanishida muhim rol oʻynab kelmoqda.

Arab tiling Hindiston diyorida tutgan oʻrniga toʻxtaladigan boʻlsak, bu hududlarda Islom dinining nisbatan kam tarqalganligiga qaramasdan, hind musulmonlari tomonidan arab tili dinlarining tili sifatida yuksak baholangan. Yuzlab arab manbalari hind olimlari tomonidan oʻrganib chiqilgan, hatto ular arab manbalarida oʻz hududlari haqida yozilgan qimmatli maʼlumotlarni topishgan. Shunday asarlardan biri Haji Dabirning “Gujarat tarixi” asaridir<sup>18</sup>.

XVII asrda Janubiy Osiyo hududlarida ham arab tili oʻz oʻrnini egallay boshladi, xususan Malayziyada. Ushbu hududlarga yaʼni Indoneziya yarm oroliga arab til Arabiston Dengizi tomonlardan sayohatga chiqqan sayyohlar orqali kirib kela boshlagan. Hozirgi kunda mazkur hududlarda Islom dini va arab tili ancha yuqori mavqega ega.

Afrika materigining ayrim davlatlarida arab tili ona tili vazifasini oʻtaydi. Xususan arab tili shimoliy va shimoliy sharqiy hududlarda madaniyat, din, hukumat sohalarida asosiy oʻrinlarni egallaydi. John Hunvich va Oʻ Frey Rex tomonidan olib borilgan “Afrikadagi arab adabiyoti” deb nomlangan tatqiqot natijalariga koʻra arab tilining Nil daryosi hududlarida, Sharqiy, Gʻarbiy Afrika hududlarida tarqalganligini koʻrsatuvchi maʼlumotlar keltirib oʻtilgan<sup>19</sup>. Ushbu tatqiqotdan yana shu maʼlum boʻldiki, Afrikadagi arab adabiyoti ham boshqa hududlardan kam boʻlmagan holda, tarixiy, diniy, tarbiyaviy va soʻfizimni yoqlovchi bahs va munozaralarga boyligini koʻrishimiz mumkin.

Arab tilining Amerika hududlarida ham tarqalishi albatta Islom dinining yoyilishi bilan izohlanadi. Tarixdan bizga maʼlumki, Afrikalik tub aholi amerikalik tomonidan qul qilib olib ketilgan. Bu aholi esa arab tilini amerika hududlarida tarqalishiga bir muncha xizmat qilganlar. Manashunday insonlardan biri Umar ibn Sayyid boʻlib, u aslida Senegalda tugʻilgan va 1867-yilda qul qilib olib ketilgan. Keyinchalik 1931-yilda arab tilida bir qancha avtobiografik asarlar, turli hujjatlar va asosiysi Qurʼondan ayim parchalarni koʻchiradi<sup>20</sup>. Bu kichkinagina ish oʻsha davrda Amerikaga arab tilining kirib kelishida muhim rol oʻynaydi. Umar ibn Sayyiddan tashqari yan bir mashhur olim Xalil Gibrin boʻlib, u oʻzining “Lebenese” sheʼri bilan tanilgan<sup>21</sup>. Xalil Gibrin oʻz

<sup>18</sup><https://www.altalang.com/beyond-words/a-note-on-arabic-literacy-and-translation/>

<sup>19</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>20</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

<sup>21</sup> The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).

ijodini Livan tog'laridan boshlab keyinchalik New Yorkda davom ettiradi. Hozirgi kunda ingliz olamidagi mashhur insonlardan biri bo'lmish Gibrin 1920-yillarda Amerikaga arab tilining kirib kelishiga ulkan hissa qo'shgan. Yaqin yillarda esa Amerikada ham arab tiliga bo'lgan e'tibor ancha ortmoqda. Bunga esa amerika hududiga arblarning tashrifining ko'payganligi sabab sifatida keltirib o'tilgan. Yana hozirda arab tiliga bo'lgan munosabatning yaxshilanib borishiga yuqorida aytib o'tilganidek, arab mamlakatlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini ham misol qilsak bo'ladi.

Ingliz tilida ham arab adabiyotlarining tarqalishi 2010-yilda beri ancha yuqorilaganligi LAF(British based literature Across Frontiers) tashkiloti tomonida olib borilgan tatqiqotlardan ma'lum bo'ladi<sup>22</sup>. 2010-2020-yillar oralig'ida arab-ingliz tarjimalarining soni 596 tani tashkil etgan va bu kitoblar Angliya va irlandiya hududlarida birdek tarqalib, bu ishlar o'z ichiga iqtisodiy, ilmiy, badiiy va turli yo'nalishlardagi kitoblarni jamlaydi. Ahamiyatlisi shundaki, bu ko'rsatkich 1990-2010-yillarda 310 tani tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan vaqt oralig'ida tarjima qilinga kitoblar soni ikki barobar oshgan. LAF tatqiqotchilari esa hali bu sohada qilinadigan ishlarning ko'pligi va arab adabiyotining mag'ziga yetish uchun uzun bir yo'lning mavjudligini takidlashgan. Yana bir guruh Cardriff Universitetining tarjimashunos olimlarining fikriga ko'ra, hozirgi geosiyosiy holatga qaramasdan, ingliz-arab tarjima sohasida bir qadar rivojlanishlar borligi takidlangan. Yuqorida tarjima qilinga kitoblar sonini barcha arab mamalakatlariga taqsimlaydidan bo'lsak, Misr davlati eng yuqori o'rinni egallaydi va bu ko'rsatkich 127 tani tashkil etadi, Misrdan tashqari keyingi yuqori o'rinlarni Iroq va Falastin davlatlari egallaydi va mos ravishda 114 ta va 71 tani tashkil etadi<sup>23</sup>. Bu kitoblar orasida Nobel mukofotiga sazovar bo'lgan misirlik ijodkor Najib Mahfuzning asarlari dunyo bo'yicha mashhur bo'lib Britaniya va Irlandiyada keng ko'p tarjima qilingan kitoblar hisoblanadi<sup>24</sup>.

Dunyo bo'yicha eng ko'p arab tilidan tarjima qilingan kitob bu Qur'on bo'lib, bu kitob dunyo bo'ylab 173 ta tilga tarjima qilingan<sup>25</sup>. Qur'ondan keyingi o'rinlarda Inam Kachachining "Quvg'in"(Dar al Jadud) kitobi turadi. Ushbu kitob Arab tarjima- adabiyotining Saif Ghobash Banipal mukofotiga sazovar bo'lgan. "Quvg'in" romani yo'qotilgan uy, sevgi va arab madaniyati haqida so'zlaydi.

Undan keyingi o'rinlarda Najot Abed Alsmadning "Urushning yoqimliligida"(Madarek Publishing Hause 2015)<sup>26</sup>. Ushbu kitobni tajima qilgan ijodkor Anam Zafer kitob haqida "Mazkur asarda Suriyadagi real hayotni to'g'ri va aniq yoritilgan" deya takidlagan. Asarda ijodkor

<sup>22</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>23</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>24</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>25</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>26</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

hayotning ko‘p qirrali ekanligini yoritish maqsadida turli xil jamiyatdagi odamlarga murojaat qiladi. Va shu sababli asar qahramonlari sifatida shaharda, qishloqda va shahar chetlarida yashovchi boy va kambag‘al insonlar, beva onalar, talabalar va pionerlarni oladi.

Taghreed Najjorning “Oqimga qarshi” (Al Sahva Books 2013) asari ham keng ko‘p tarjima qilinadigan kitoblar sirasiga kiradi<sup>27</sup>. Mazkur asar real hayotiy voqealarga asoslangan bo‘lib, 15 yoshli baliqchi qiz haqida yozilgan.

Shadiy Levisning “Grinvich yo‘nalishida” (Dar Flain, 2019) asari ijodkorning Londonda yashagan davrlari haqida so‘zlaydi<sup>28</sup>. Bu asar ham tarjima qilinadigan asarlar orasida yuksak baholanadi.

2009-yilda “Shayx Hamad”, 2020- yilda esa “Prix de la Literature Arabe” mukofotiga sazovor bo‘lgan Abdulaziz Baraka Sakin o‘zining “Samahani” asari bilan mashhur<sup>29</sup>. Ushbu asar portugallar tomonidan sodir etilgan Oman yerlaridagi bosqinlar haqida bo‘lib, XX asrning eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan kitobi hisoblanadi.

Yana bir arab adabiyotidan eng ko‘p tarjima qilinadigan asrlardan biri Jan Do‘stning “Xavfsiz o‘tish” (Dar Masciliana 2019) asari bo‘lib, bu asar haqida Marilyn Booth (2019-yilning eng yaxshi kitobxon) ning fikricha ushbu asar Suriyadagi fuqorolik urushlari haqida ochiqdan ochiq yozilgan<sup>30</sup>. U yana asarning bosh qahramoni o‘quvchi xotirasida o‘zining hozirgi Suriya haqidagi nuqta‘yi nazari bilan qolishini aytib o‘tgan.

“Anna Frankning uyida” asari bilan Makka Hasan arab tarjimashunosligida yuksak qadrlanadi<sup>31</sup>. Mazkur asar germaniyalik kuzatuvchi Anna Frankning Tunis, Misrga bo‘lgan sayohatlarini yoritgan.

Badr Ahmadning “Besh kunlik sukut”(New Dalmoun for Publishing and Disturbution 2021) asari ham dunyo bo‘yicha arab tilidan eng ko‘p tarjima qilinadigan kitoblar sirasiga kiradi<sup>32</sup>. Bu asar o‘zida urushning dahshatlari, sovuqligi va har bir zarraga tasirini aks ettiradi.

Liviyalik yozuvchi Najva bin Shafvan o‘zining “Ot yoli” asari bilan “Xalqaro Arab qisqa asarlari” mukofotini oladi va bunda ko‘rinib turibdiki, bu asar ham dunyo xalqlari tomonidan yuksak qadrlanadi<sup>33</sup>. Asar mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ikki inson o‘rtasidagi munosabatlar haqida yozilgan.

<sup>27</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>28</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>29</sup> Mubarakova D., Yunusova N. A study of translation science initiating gender bias index and gender quotas Asian journal of multidimensional research, 2021. Volume 10, Issue. – 806 P.

<sup>30</sup> <https://readingwithkt.home.blog/2020/07/21/books-by-women-in-translation-from-arabic/>

<sup>31</sup> <https://arablit.org/2014/05/22/report-arabic-fourth-most-translated-literary-language-in-the-us-in-2014>

<sup>32</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

<sup>33</sup> <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>

Iman Marselning “Inoyat Zayotning izidan” (Kotobkhan Books 2019) asari ham mashhur asar hisoblanib, dunyo bo‘yicha eng ko‘p o‘qiladigan kitob sanaladi. Mazkur asar asosan ijodkorning o‘z hayoti haqida yozilgan bo‘lib, detektiv va she‘riyat hayoli bilan boyitilgan. Bu kitob 2021- yilda “Shayx Zayid” mukofotiga sazovar bo‘lgan<sup>34</sup>.

### XULOSA

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha ma‘lumotlardan shunday xulosaga kelsak bo‘ladiki, arab tili asrlardan buyon ayrim davlatlarning asosiy tili sifatida ayrim hududlarda esa Islom tili sifatida keng tarqalgan. Hozirda ham arab tiliga bo‘lgan e‘tiborning yuksakligi bu tilda qadimdan beri to‘planib kelingan ma‘lumotlarning anchagina ekanligi bilan xarakterlanishini aytib o‘tishimiz kerak. Keltirib o‘tilgan kitoblarning barchasi dunyo xalqlari tomonidan qadrlanib, o‘qilib kelinmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. An Opinion Analysis Tool for Colloquial and Standard Arabic  
(<https://www.researchgate.net/publication/236833228>) Mohammed N. Al-Kabi(Zarqa University), Izzat Alsmad(Texas A&M University San Antonio),Amal Gigieh(Al-Balqa' Applied University), Heider Ahmad Wahsheh(King Faisal University).
2. Arabic Language: Historic and Sociolinguistic Characteristics  
<https://www.researchgate.net/publication/307167761> Ibrahim Al-Huri (Sheba Region University - Yemen)
3. A History of the Arabic Language.Brian Bishop Linguistics 450 April 24, 1998
4. Effective Methods in Learning Arabic Language as a Foreign Language  
<https://www.researchgate.net/publication/303028663> .Rosni Samah( USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Fariza Puteh-Behak(USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Noor SAAZAI Mat Saad (USIM | Universiti Sains Islam Malaysia) Ramiaida Darmi (USIM | Universiti Sains Islam Malaysia)
5. <https://bookriot.com/books-translated-from-arabic/>
6. THE ROUTLEDGE HANDBOOK OF ARABIC TRANSLATION  
(Routledge\_Handbook\_of\_Arabic\_Translation.) ( Edited by Sameh Hanna, Hanem El-Farahaty and Abdel- Wahab Khalifa)
7. <https://readingwithkt.home.blog/2020/07/21/books-by-women-in-translation-from-arabic/>

<sup>34</sup> Mubarakova D. A Media Matn Tarjimasida Lingvomadaniy va Sotsiolingvistik Aspektlar. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor= 1.7

8. The paradox of translating the untranslatable: Equivalen vs. non-equivalence in translating from Arabic into English Amira D. Kashgary Department of English, College of Arts and Humanities, King Abdul-Aziz University, Jeddah, Saudi Arabia
9. Facets from the Translation Movement in Classic Arab Culture Hala Khalidi a, Basma Ahmad Sedki Dof Jordan, Amman.
10. <https://brill.com/display/book/edcoll/9789004472648/BP000005.xml?language=en>
11. <https://arablit.org/2014/05/22/report-arabic-fourth-most-translated-literary-language-in-the-us-in-2014>
12. <https://publishingperspectives.com/2017/11/uae-rewayat-imprint-translations-arabic-adult-readers/>
13. <https://www.altalang.com/beyond-words/a-note-on-arabic-literacy-and-translation/>
14. The Global Significance of Arabic Language and Literature Carl W. Ernst (University of North Carolina at Chapel Hill).
15. Mubarakova D. A Media Matn Tarjimasida Lingvomadaniy va Sotsiolingvistik Aspektlar. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7  
Mubarakova D., Yunusova N. A study of translation science initiating gender bias index and gender quotas Asian journal of multidimensional research, 2021. Volume 10, Issue. – 806 P.